
Ingliz – o‘zbek tilida xalq maqollarining sinonimik lug‘atini shakllantirishda mashq-ilovaning lingvodidaktik xususiyatlari

Baxodirova Mijgona Baxodirovna
baxodirovamijgon24@gmail.com

Magistrant,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Annotatsiya *Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi maqollarni o‘zaro solishtirish, ularning sinonimik lug‘atini shakllantirishda mashq-ilovalar (amaliy topshiriqlar) orqali lingvodidaktik yondashuvning ahamiyati yoritilgan. Maqollar har bir xalqning milliy tafakkuri, hayot falsafasi va madaniyatini ifodalovchi qisqa, hikmatli iboralar sifatida xalq og‘zaki ijodining muhim janridir. Ingliz va o‘zbek maqollarining semantik va funksional mosliklariga asoslanib ularni taqqoslash, tarjima va xorijiy til o‘qitish jarayonida foydalanish orqali o‘quvchilarda madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish mumkin. Maqol semantik moslikni – ya‘ni mazmunan bir xil fikrni turlicha ifodalovchi maqollarni – va funksional moslikni – bir xil kommunikativ vazifani bajaradigan maqollarni – o‘rganishni taklif qiladi. Natijada, maqollar tahlili orqali til o‘rgatuvchi mashqlar nafaqat til o‘zlashtirishga, balki madaniy qadriyatlarini anglashga ham xizmat qiladi. Shu bilan maqola lingvodidaktik jarayonda maqollardan samarali foydalanish yo‘llarini ko‘rsatadi. Bu jarayon o‘quvchilar tafakkurini boyitadi, mavhum fikrlarni tushunishga yordam beradi va til o‘rganishda motivatsiyani oshiradi. Maqollar asosida tuzilgan topshiriqlar esa o‘zaro muhokama va ijodiy fikrlashni rag‘batlantiradi.*

Kalit so‘zlar *Xalq maqollari, sinonimik lug‘at, lingvodidaktika, semantik moslik, funksional moslik, ingliz tili, o‘zbek tili, mashq-ilova, xalq og‘zaki ijodi, tarjimashunoslik*

Лингводидактические особенности упражнения по составлению синонимичного словаря народных слов в англо-узбекском языке

Баходирова Мижгона Баходировна
baxodirovamijgon24@gmail.com

Магистрант,
Термезский университет экономики и сервиса

Аннотация *В данной статье подчеркивается важность лингводидактического подхода к сопоставлению пословиц на английском и узбекском языках и формированию словаря синонимов посредством упражнений (практических заданий). Пословицы являются важным жанром устного народного творчества, отражающим национальное мышление, жизненную философию и культуру каждого народа в форме кратких, мудрых выражений. Основываясь на семантическом и функциональном сходстве английских и узбекских пословиц, их сравнение, перевод и использование в процессе обучения иностранному языку способствует развитию межкультурной компетенции учащихся. В статье предлагается изучение семантического сходства – пословиц, выражающих одну*

и ту же мысль разными словами, и функционального сходства – пословиц, выполняющих одинаковую коммуникативную функцию. В результате упражнения на основе анализа пословиц способствуют не только овладению языком, но и осмыслению культурных ценностей. Таким образом, в статье показаны эффективные пути использования пословиц в лингводидактическом процессе. Такой подход обогащает мышление учащихся, помогает им понимать абстрактные понятия и повышает мотивацию к изучению языка. Задания на основе пословиц также способствуют взаимному обсуждению и развитию креативного мышления.

**Ключевые
слова**

Народные пословицы, словарь синонимов, лингводидактика, семантическая совместимость, функциональная совместимость, английский язык, узбекский язык, упражнение-апликация, народное устное творчество, переводоведение

**Linguodidactic features of
exercise-application in forming a
synonymous dictionary of folk
proverbs in English-Uzbek**

Bahodirova Mijgona Bahodirovna
baxodirovamijgon24@gmail.com

Master student,
Termez university of economics and service

Annotation

This article highlights the importance of the linguodidactic approach to comparing proverbs in English and Uzbek, forming their synonymous dictionary through exercises-applications (practical tasks). Proverbs are an important genre of oral folk art that reflect each nation's national thinking, philosophy of life, and culture in the form of short, wise sayings. Based on the semantic and functional equivalence of English and Uzbek proverbs, comparing and translating them, and using them in foreign language teaching can help develop learners' intercultural competence. The article proposes the study of semantic equivalence – proverbs that express the same idea in different ways – and functional equivalence – proverbs that fulfill the same communicative function. As a result, exercises based on proverb analysis serve not only language acquisition but also understanding of cultural values. Thus, the article demonstrates effective ways to use proverbs in the linguodidactic process. This approach enriches students' thinking, helps them grasp abstract concepts, and increases motivation in language learning. Tasks based on proverbs also encourage mutual discussion and creative thinking.

Key words

Folk proverbs, synonymic dictionary, linguodidactics, semantic compatibility, functional compatibility, English, Uzbek, exercise-application, folk oral creativity, translation studies

Kirish

Maqollar har bir xalqning milliy tafakkuri,

madaniyati va hayot falsafasini aks ettiruvchi til birliklaridan biridir. Ingliz va o'zbek tillarida

mavjud bo'lgan maqollarni o'zaro solishtirish, ularning sinonimik mosliklarini aniqlash va ushbu jarayonda lingvodidaktik yondashuvdan foydalanish xorijiy til o'rgatish jarayonida samarali vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ushbu maqola ingliz va o'zbek maqollarining sinonimik lug'atini shakllantirishda mashq-illovaning (praktik topshiriqlarning) lingvodidaktik xususiyatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Har bir millat va elatning o'zligini, tarixi, madaniyati va milliy qadriyatlarini ifodalovchi omillardan biri xalq og'zaki ijodidir. Xalq og'zaki ijodi asrlar davomida sayqallanib, xalq orasida aytilib, avlodan-avlodga o'tib kelayotgan ma'naviy meroslardan biridir. Xalq og'zaki ijodining takrorlanmas janrlaridan biri bu maqoldir. Maqol folklorshunoslikda o'rganilayotgan eng muhim mavzulardan biridir. Maqollar xalq donishmandligining nodir namunalari sifati og'zaki badiiy ijodning keng tarqalgan mustaqil janridir. Shartli ravishda ularni xalqona odob-axloq qoidalari deb atash mumkin. Har bir millat va elatning o'ziga xosligi, tarixi, dunyoqarashi, madaniyati va milliy qadriyatlari asrlar davomida shakllanib, ko'p hollarda og'zaki an'analar orqali avlodan-avlodga yetib keladi. Bu jihatdan xalq og'zaki ijodi xalqlarning o'zlikni anglashida, milliy o'zligining uzviy tarkibiy qismi sifatida muhim rol o'ynaydi. O'zbek xalqining ham ko'p asrluk og'zaki ijodi badiiy ifoda vositalari bilan boyitilgan, xalq hayoti, turmush tarzi va falsafasining ko'zgusi bo'lib xizmat qilmoqda.

Xalq og'zaki ijodining eng qadimiy va eng ommabop janrlaridan biri bu – maqoldir. Maqollar xalq donishmandligining, kuzatuvchanligining, hayot tajribasining ifodasi bo'lib, ularni shartli ravishda xalqona odob-axloq qoidalari, axloqiy me'yorlar, muomala madaniyati yoki hatto xalq pedagogikasi asoslari deb atash mumkin. Har bir maqolda insoniy fazilatlar – rostgo'ylik, sabr-toqat, mehnatsevarlik, halollik, kamtarlik va hayotiy hikmat mujassam bo'ladi. Maqollar – qisqa, lo'nda, obrazli va ritmik tuzilishga ega bo'lib, katta hayotiy mazmuni

ixcham shaklda yetkazadi. Ular har doim xalq tilida sodda, lekin mazmunan chuqur va hikmatli bo'ladi. Masalan, "Yaxshilik qil – daraksiz ketmas", "O'rgangan ko'r bo'lsa, urganini qo'ymas", kabi maqollar hayotiy tajribaga asoslangan va ma'naviy tarbiya vositasi sifatida xizmat qiladi (Baxodirova, 2025).

Folklorshunoslik fanida maqollar aforizm sifatida, ya'ni qisqa, ammo mazmunan chuqur fikr ifodalovchi iboralar sifatida o'rganiladi. Ular faqatgina tilda emas, balki xalq tafakkuri, madaniy dunyoqarashi, ijtimoiy munosabatlar tizimida ham mustahkam o'rin egallaydi. Shu bois, maqollarni tahlil qilish orqali biror xalqning mentaliteti, qadriyatlari, mehnatga, ilmga, tabiatga, oilaviy hayotga munosabati haqida chuqur tasavvurga ega bo'lish mumkin. Shuningdek, maqollar xalq orasida tarbiyaviy vosita sifatida ham keng foydalanilgan. Yoshi katta odamlar bolalarni tanbeh qilish, nasihat berish, to'g'ri yo'lga boshlash uchun maqollardan foydalangan. Chunki maqol ko'p gapdan ko'ra samaraliroq, ta'sirchanroq vosita hisoblangan. Shu boisdan ham maqollar xalq pedagogikasida, oilaviy tarbiyada, hatto diniy-axloqiy targ'ibotda o'ziga xos o'rin egallaydi. Yana bir muhim jihat shundaki, maqollar turli tarixiy davrlar, ijtimoiy sharoitlar va madaniy o'zgarishlar natijasida boyib borgan, ayrim hollarda yangicha mazmunga ega bo'lgan. Ular zamon bilan hamnafas bo'lib, o'zbek adabiyotida, dramaturgiyada, publitsistikada va hatto kundalik nutqda faol qo'llanilmoqda.

Metod

Semantik moslik – mazmunan bir-biriga yaqin yoki aynan bir fikrni ifodalovchi maqollar tanlanadi. *Misol: "When in Rome, do as the Romans do" – "Yurtga borib, yurganingga qarab yur"*. Tilshunoslikda "semantik moslik" tushunchasi matn yoki gap birikmalarining ma'no jihatidan bir-biriga yaqin bo'lishini anglatadi. Bu hodisa, ayniqsa, maqollarni tahlil qilishda alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir tilda mavjud bo'lgan maqollar – xalq donishmandligining

natijasi sifatida – ko'pincha bir xil fikr, g'oya yoki hayotiy haqiqatni turlicha ifodalash usullariga ega bo'ladi. Shu bois, mazmunan bir-biriga yaqin yoki aynan bir fikrni ifodalovchi maqollarni aniqlash orqali ularning semantik mosligini aniqlash mumkin.

Masalan, o'zbek tilidagi "Mehnat qilgan och qolmas" maqoli bilan "Kim mehnat qilsa, rohat topar" degan maqollar mazmunan bir-biriga juda yaqin: ikkalasi ham mehnatsevarlik, halol mehnat natijasi haqida so'z yuritadi. Bu maqollar bir fikrning turli shakldagi ifodasi bo'lib, semantik moslikni namoyon etadi.

Shuningdek, semantik moslik xalqaro maqollarni qiyosiy o'rganishda ham muhim vosita hisoblanadi. Masalan, ingliz tilidagi "*Where there's a will, there's a way*" maqoli bilan o'zbek tilidagi "*Istagan tog'ni larzaga keltirar*" maqoli bir xil mazmunga ega bo'lib, inson irodasi va qat'iyati orqali qiyinchiliklarni yengib o'tish mumkinligini ifodalaydi. Bunday holatlar tarjima jarayonida ham ekvivalent maqollarni aniqlashda qo'l keladi (Pianta, Hamre, 2009). Semantik moslik asosida maqollarni tanlash va ularni tahlil qilish lingvistik tadqiqotlar, tarjimashunoslik va madaniyatlararo muloqotni chuqurroq tushunishga xizmat qiladi. Bu orqali nafaqat tillararo, balki madaniyatlararo umumiyliklar va farqlar ham yoritiladi.

Funksional moslik – muloqot jarayonida bir xil vazifani bajaradigan maqollar aniqlanadi. Misol: "*Don't put all your eggs in one basket*" – "*Bitta quyoning ketidan quvgan ovsiz qoladi*". Funksional moslik deganda muloqot jarayonida bir xil ijtimoiy-ma'naviy yoki nutqiy vazifani bajaradigan maqollar tushuniladi. Bunday maqollar mazmuni har doim ham bir xil bo'lmasligi mumkin, biroq ular muayyan holatda aytilganda bir xil kommunikativ maqsadga xizmat qiladi. Tilshunoslik va tarjimashunoslikda funksional moslik deganda turli tillarda ifodalangan bo'lsa-da, muloqot jarayonida bir xil ijtimoiy-ma'naviy yoki nutqiy vazifani bajaradigan birliklar tushuniladi. Bu hodisa

ayniqsa maqollarni o'rganishda muhim o'rin egallaydi. Chunki maqollar faqat ma'nosini emas, balki qanday sharoitda va qanday niyat bilan aytilishini ham inobatga olgan holda qo'llaniladi.

Funksional mos maqollar mazmunan har doim ham bir xil bo'lmasligi mumkin, ammo ular aytilgan kontekstda o'xshash kommunikativ maqsadga xizmat qiladi – ya'ni nasihat berish, ogohlantirish, tasalli berish, tanbeh qilish, yoki kulgi uyg'otish kabi nutqiy vazifalarni bajaradi. Bu xususiyat ularning tarjimada to'g'ridan-to'g'ri ekvivalentini topishdan ko'ra, vazifadosh va muloqotdagi rolini anglash orqali mos ifodani tanlashni talab etadi.

Masalan, ingliz tilidagi "*Don't put all your eggs in one basket*" maqoli odamni ehtiyotkorlikka, imkoniyatlarni diversifikatsiya qilishga undaydi. O'zbek tilida bu fikrni to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish sun'iy eshinishi mumkin, biroq "Bitta quyoning ketidan quvgan ovsiz qoladi" maqoli xuddi shu funksiyani – ya'ni tavakkalchilikdan ogohlantirish, ehtiyotkorlikka chaqirish vazifasini bajaradi.

Yana bir misol: ingliz tilida "*Too many cooks spoil the broth*" maqoli jamoada haddan tashqari ko'p aralashuv natijasida ish buzilishini bildiradi. O'zbekcha mos maqol esa "*Qo'shchi ko'p bo'lsa, to'y buziladi*" bo'lishi mumkin. Garchi so'zma-so'z mos tushmasa-da, funksional jihatdan bu maqollar bir xil kommunikativ vazifani bajaradi – ya'ni haddan tashqari ishtirok yoki aralashuvning salbiy oqibatini bildiradi. Shuningdek, ingliz tilidagi "*Look before you leap*" – ya'ni ish qilishdan oldin yaxshi o'ylab ko'r degan ma'nodagi maqol o'zbek tilida "Yeti o'lchab, bir kes" degan maqol bilan funksional jihatdan mos tushadi. Ikkalasi ham muloqotda ehtiyotkorlikka, o'ylab ish qilishga undaydi (Ehri, 2014). Bu kabi maqollarni o'rganish, ayniqsa madaniyatlararo muloqot yoki tarjima jarayonida muhim ahamiyatga ega. Chunki ular orqali til egasining dunyoqarashi, qadriyatlarini, nutq madaniyati va milliy tafakkurini anglash mumkin. Funksional mos maqollar tarjima amaliyotida ekvivalentlikdan ko'ra

moslikni afzal ko'rish kerakligini ko'rsatadi. Misol uchun, o'zbek tilida muayyan ogohlantiruvchi vazifani bajaruvchi "Yotgan itni uyg'otma" degan maqol ingliz tilidagi "*Let sleeping dogs lie*" maqoli bilan funksional jihatdan mos tushadi. Har ikkisi ham suhbatdoshni ortiqcha aralashuvdan ogohlantirish, mavjud tinchlikni buzmaslikni maslahat berish uchun ishlatiladi.

Shuningdek, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan maqollar orasida ham funksional moslik kuzatiladi. Masalan, o'zbek tilidagi "Yaxshilik qil, daraga os" maqoli bilan rus tilidagi "*Delo dobroe – ne propadet*" ("Yaxshi ish yo'qolmaydi") maqollari har ikki tilda ham odamlarga yaxshilik qilish, ezgulikdan voz kechmaslik g'oyasini singdiradi. Mazkur maqollar turlicha ifodalangan bo'lsa-da, muloqotda o'xshash tarbiyaviy vazifani bajaradi. Funksional moslikni aniqlash ayniqsa til va madaniyatlararo tarjima, didaktik materiallar tayyorlash, lingvokulturologik tadqiqotlar va notiqlik san'ati uchun muhimdir. Bu hodisa orqali har bir tilning o'ziga xosligini saqlagan holda, bir xil kommunikativ ehtiyojni turli vositalar bilan ifodalash mumkinligini ko'rish mumkin. Funksional moslik – turli tillarda mavjud bo'lgan, lekin bir xil nutqiy yoki ijtimoiy vazifani bajaradigan maqollarni aniqlash orqali muloqotni boyitish va madaniyatlararo anglashuvni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

Maqollar nafaqat tilning, balki xalqning tarixiy xotirasi, tafakkur tarzi va madaniyatining ko'zgusi hisoblanadi. Maqollarni o'rganishda **madaniy konnotatsiya** – ya'ni, ularda yashiringan madaniy qadriyatlar, obrazlar va mentalitetga oid o'xshashlik va farqlarga e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv orqali har ikki tilga mansub maqollarning chuqur ma'nosi, xalq dunyoqarashi, urf-odat va qadriyatlari haqida tasavvur hosil qilish mumkin.

Masalan, o'zbek tilidagi "*To'n kiygan to'nini biladi*" maqoli bilan ingliz tilidagi "**Only the wearer knows where the shoe pinches**" maqoli mazmun jihatidan bir-biriga yaqin bo'lsa-da,

ularning madaniy konnotatsiyasi turlicha. O'zbekcha maqolda milliy kiyim – to'n obraz sifatida ishlatilgan bo'lsa, inglizcha maqolda poyabzal (shoe) orqali obraz yaratilgan. Bu farq har bir xalqning hayot tarzi, kiyinish madaniyati va madaniy tafakkurini aks ettiradi (Kurbanovna, 2022).

Yana bir misol: o'zbek tilidagi "*Otangni o'ldirgan bilan quda bo'lma*" maqolida oila, qudalik rishtalari, urug'-aymoqchilik tushunchalari asosiy madaniy konnotatsiyani tashkil etsa, ingliz tilida unga yaqin ma'nodagi "*Don't sup with the devil unless you have a long spoon*" maqolida diniy va axloqiy obrazlar ustuvorlik qiladi. Bu misollar ikki xil madaniyatda salbiy shaxslar bilan yaqin aloqada bo'lish xavfi haqida ogohlantirayotgan bo'lsa-da, ifoda uslubi va asoslangan madaniy qadriyatlar boshqacha.

Shuningdek, tabiatga munosabat ham madaniy konnotatsiyada muhim rol o'ynaydi. O'zbek tilidagi "*Ko'tarma suv bilan bog' bo'lmas*" maqoli dehqonchilik madaniyatiga, suvning qadrlanishiga asoslangan bo'lsa, ingliz tilidagi "*You can't make bricks without straw*" maqoli hunarmandchilik, qurilishga oid qadriyat va urf-odatlar bilan bog'liq. Madaniy konnotatsiyani inobatga olish maqollar tarjimasi, til o'rganish, madaniyatlararo kommunikatsiya va lingvokulturologik tadqiqotlarda alohida ahamiyatga ega. Maqollar orqali xalqning milliy mentaliteti, qadriyatlari, tarixiy hayot tarzini o'rganish mumkin, bu esa tarjimada nafaqat ma'noni, balki ruhni ham to'g'ri yetkazishga xizmat qiladi. "*Actions speak louder than words*" – *Ish – so'zdan ustun*. "*A friend in need is a friend indeed*" – *Yaxshi do'st boshga ish tushganda bilinadi*. Bunday maqollarni juftlikda berish o'quvchilar uchun ikki tilda semantik ifodani qiyosiy o'rganish imkonini yaratadi.

Xulosa

Ingliz – o'zbek xalq maqollarining sinonimik lug'atini shakllantirish va uni mashq-illovalar orqali o'quv jarayoniga joriy etish til o'rganishning lingvomadaniy, semantik va

stilistik jihatlarini chuqur anglashga xizmat qiladi. Ushbu mashqlar o'quvchilarning ijodiy tafakkuri, madaniyatlararo kompetensiyasi va leksik zaxirasini boyitadi. Kelajakda bu asosda multimodal darsliklar yoki interaktiv ilovalar yaratish maqsadga muvofiqdir. Ingliz – o'zbek xalq maqollarining sinonimik lug'ati asosida ishlab chiqilgan mashq-ilovalar til o'rganish jarayonini nafaqat mazmunli, balki madaniy jihatdan boyitilgan holda tashkil etishga xizmat

qiladi. Bunday yondashuv o'quvchilarning til kompetensiyasini chuqurlashtirib, ularni dunyoqarashini kengaytiradi, boshqa madaniyatga nisbatan hurmat va qiziqishni shakllantiradi. Bu borada metodik yondashuvlarni takomillashtirish, multimodal vositalarni qo'llash, sinf va onlayn formatda qo'llanadigan topshiriqlarni ishlab chiqish istiqbolli yo'nalishlardan hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Baxodirova M. B. (2025). INGLIZ VA O'ZBEK ELEKTRON PAREMIOLOGIK LUG'AT TUZISHNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI. *Ta'limning Zamonaviy Transformatsiyasi*, 16(1), 67-70. <https://journal-web.uz/index.php/04/article/view/564>
2. Ehri, L. C. (2014). Orthographic mapping in the acquisition of sight word reading, spelling memory, and vocabulary learning. *Scientific Studies of Reading*, 18(1), 5-21.
3. Karshieva, B. F. (2022). Methodology and pedagogical practice-test result of organization of pedagogical training. *Экономика и социум*, (12-1 (103)), 135-138.
4. Kurbanovna, Y. F. (2022). The Growth Of English Standard English Pronunciation In English. *Scientific Impulse*, 1(4), 1960-1962.
5. Pianta, R. C., & Hamre, B. K. (2009). Conceptualization, measurement, and improvement of classroom processes: Standardized observation can leverage capacity. *Educational Researcher*, 38(2), 109-119.
6. Qarshiyeva, B. D. F. (2022). INGLIZ TILI FANINI BILINGUAL O 'QITISH VA FAKULTATIV DARSLAR UCHUN CASE STUDY METODIDAN FOYDALANISH. *Academic research in educational sciences*, 3(4), 21-25.
7. Shermamatova, S., & Abdullayeva, D. (2022). EDUCATION SYSTEM OF UNITED KINGDOM AND UZBEKISTAN. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(11), 491-497.
8. Torgesen, J. K., & Burgess, S. R. (1998). Consistency of reading-related phonological processes throughout early childhood: Evidence from longitudinal-correlational and instructional studies. *Reading and Writing*, 10(4), 219-252.